

O`zbekiston hududidagi qadimgi jamoalar madaniyatining o`rganilish tarixi.

**Niyoz Rashidov,
SamDU magistranti.**

O`rta Osiyo hududi insoniyat paydo bo`lgan beshiklardan biri bo`lgan desak, bizningcha, mubolag`a bo`lmaydi. Chunki O`zbekiston hududidan topilgan va o`rganilgan madaniyatlar hamda ularga oid bo`lgan yodgorliklar buni isbotlab turibdi. Mana bir necha yuz ming yil o`tibdiki, o`lkamiz tuprog`i inson va uning faoliyati uchun xizmat qilib kelmoqda. Shu vaqtga qadar bu hududda, arxeologik davrlashtirish nuqtai nazaridan olib qaraganda, barcha davrlarda odamzot istiqomat qilib keldi. Antropogenez jarayonlari, aynan, O`rta Osiyo hududida ham rivojlandi. Shu boisdan ham o`lkamiz tarixini qancha o`rgansak ozlik qiladi.

Odanzod izlari qayd etilgan eng qadimiy yodgorliklardan biri Farg`ona vodiysi hududida joylashgan Selingur manzilgohidir. Malakatimizda so`ngi yillar mobaynida o`zbek – polsha arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Ko`kayoz, Ayoqagitma kabi ashel davriga oid makonlarning kashf etilishi bilan Zarafshon vohasi, umuman, O`zbekiston hududi odanzod tomonidan ilk paleolit davridanoq o`zlashtirilganligi ma`lum bo`ladi. Zarafshon vohasining keyingi tosh davri taraqqiyot bosqichi bo`lgan muste davri jamoalari moddiy madaniyati ham yaxshi tadqiq etilib, fanimiz uchun muhim bo`lgan arxeologik ma`lumotlar qo`lga kiritildi.

O`rta Osiyo madaniyatlarini o`rganganda madaniyatlarning regional tiplarga bo`lish mumkin. V.M.Masson tomonidan ishlab chiqilgan jadvalga ko`ra madaniyatning hududiy tiplari ikkita subregionga ajratiladi: Eron – Parfiya subregioni va Hind – Baqtriya subregionlaridir. Shundan, Xorazm hududidagi madaniyatlar har ikkala subregionga tegishli bo`lsa, qadimgi Sug`d hududidagi madaniyatlar Hind – Baqtriya subregioniga tegishli ekanligi ko`rsatiladi[1].

Shu jumladan, 1939 – 40- va 1945-yillar davomida Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasi tomonidan qadimgi Xorazm hududlarida keng tarqalgan neolit davriga tegishli ovchi va baliqchilar madaniyati o`rganildi. Bu madaniyat

Orol dengizining bo`ylari, Sirdaryo va Amudaryolarning etaklari, Oqchadaryo va Mohandaryo havzalari atroflarida keng tarqalgan.

O`rta Osiyo neolit madaniyatini o`rganishda Quyi Zarafshonning qadimiy o`zanlari bo`lgan Mohandaryo, Go`jayli, Echkilisoy, Daryosoy qirg`oqlari, Katta va Kichik Tuzkon qirg`oqlaridagi topilgan qarorgohlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu hududdagi dastlabki tadqiqot ishlarini akademik Ya.G`.G`ulomov boshlab bergan edi va keyinchalik O`.Islomov, A.Asqarov kabi arxeologlar katta qidiruv ishlarini bajarib, ibtidoiy davrning turli bosqichlariga doir ko`pgina yodgorliklarni topdilar. Dastlabki qidiruv ishlari tufayli bu atrofdan qirqdan ortiq neolit davriga oid bo`lgan qarorgohlar topildi[3].

1961-yilning bahorida Ya.G`ulomov boshchiligidagi ekspeditsiya Mohandaryo etaklarida, Katta Tuzkon ko`lining qirg`og`ida neolit davriga oid bo`lga Darbozaqir manzilgohida qazish ishlarini olib bordilar[4]. Yodgorlik uch madaniy qatlamlardan tashkil topgan. Yuqori madaniy qatlam boy hisoblansa-da, biroz buzilgan, ikkinchi madaniy qatlam qizil-sarg`ish rangda, topilmalar kam uchratilgan ammo yaxshi saqlangan, uchinchi madaniy qatlam juda boy, bu ham qizil-sarg`ish rangda va buzilmagan, bu qatlamdan turar joy qoldiqlari uchratilgan.

1950-yillarda Ya.G`ulomov tomonidan Zamonbobo ko`li atrofida topilgan yodgorliklarda qazishma ishlari olib borildi. Ya.G`ulomov hududdan topilgan qabrlarni ikki tipga ajratadi: Sharqiy qabrlar – qadimiyroq va G`arbiy hududdagi qabrlar – keying davrga oidligini aytadi[2].

1950-yilda Farg`ona vodiysi hududlarida yana bir madaniyat – Chust madaniyati yodgorliklari topildi. Bu madaniyat M.E.Voronsa boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan ochildi. V.I.Spreshevskiy tomonidan esa 1953-yilda statsionar qazish ishlari olib borildi. Chust madaniyati aholisi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug`ullanganlar. Manzilgohlar qazib o`rganilganda ko`plab bug`doy, arpa doni qoldiqlari va, shuningdek, uy hayvonlaridan mayda shoxli qoramollar hamda ot suyak qoldiqlari topib o`rganilgan. Chust madaniyatiga oid yodgorliklardan biri Andijon viloyati hududidan topilgan Dalvarzintepa yodgorligidir. Yodgorlikda 1952-yilda

Yu.A.Zadneprovski tomonidan tadqiqot ishlari olib boriladi. Dalvarzintepa yodgorligi uch madaniy qatlamdan iborat. Madaniy qatlamlar bir-biridan kam farqlanadi. Qazish ishlari jarayonida tasvirlar tushirilgan va tasvirlarsiz sopol idishlari, bronzadan ishlangan turli buyumlar va boshqa turdagi artefaktlar qo`lga kiritilgan[2].

O`lkamizning qadimgi jamoalari madaniyatlarini o`rganish ishlari bugungi kunda ham keng miqyosda olib borilmoqda va tariximiz uchun muhim bo`lgan ma'lumotlar qo`lga kiritilmoqda.

Adabiyotlar:

1. В.М.Массон, Первые цивилизации, Ленинград, Издательство «Наука», 1989, стр. 16.
2. В.А.Шишкин, Узбекистанская археологическая экспедиция (полевые работы 1956 – 1959 гг.)// ИМКУ, вып. 2, Ташкент, 1961, стр. 26.
3. Жўракулов М., Ўрта Осиё ибтидоий археологияси, Т., 1984, 52 б.
4. У.Исламов, Многослойная стоянка Кельтименарской культуры в низовьях Зерафшана // ИМКУ, вып. 4, Ташкент, 1963, стр. 26.